

**BOLALARDA NUTQ KAMCHILIGI YA'NI DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGI VA  
UNI BARTARAF ETISH****Bekmuradova Gulsanam Ixtiyor qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti MPL-CU 23 guruh talabasi.

**Voxobova Muniraxon Sadirdinovna**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18077343>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklaridan biri-dizartriyaning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, diagnostika usullari hamda uni bartaraf etishning samarali logopedik yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Dizartriya markaziy va periferik nerv tizimi faoliyatining buzilishi natijasida yuzaga keladigan motor nutq buzilishi sifatida tavsiflanib, uning bolalar nutqining fonetik-fonematik, artikulyatsion va prosodik jihatlariga salbiy ta'siri yoritib berilgan.

Maqolada dizartriya erta aniqlashning ahamiyati, kompleks yondashuv asosida olib boriladigan logopedik korreksiya jarayonlari, artikulyatsion mashqlar, nafas va ovoz ustida ishlash usullarining samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, logoped, nevrolog, psixolog va ota-onalar hamkorligining dizartriya bolalarda nutqni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы причины возникновения, клинические признаки, методы диагностики и эффективные логопедические способы коррекции одного из речевых нарушений, встречающихся у детей, — дизартрии. Дизартрия характеризуется как моторное нарушение речи, возникающее в результате нарушений деятельности центральной и периферической нервной системы; показано её негативное влияние на фонетико-фонематические, артикуляционные и просодические стороны детской речи.

В статье обоснована значимость раннего выявления дизартрии, рассмотрены логопедические коррекционные процессы, осуществляемые на основе комплексного подхода, а также эффективность артикуляционных упражнений и методов работы над дыханием и голосом. Кроме того, раскрыта роль взаимодействия логопеда, невролога, психолога и родителей в развитии речи у детей с дизартрией.

**Annotation.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the causes of occurrence, clinical features, diagnostic methods, and effective speech therapy approaches for correcting dysarthria, one of the speech disorders commonly found in children. Dysarthria is characterized as a motor speech disorder resulting from dysfunctions of the central and peripheral nervous systems, and its negative impact on the phonetic-phonemic, articulatory, and prosodic aspects of children's speech is highlighted.

The article substantiates the importance of early identification of dysarthria and examines speech therapy correction processes carried out on the basis of a comprehensive approach, as well as the effectiveness of articulatory exercises and methods of working on breathing and voice. In addition, the role of collaboration among speech therapists, neurologists, psychologists, and parents in the development of speech in children with dysarthria is emphasized.

**Kalit so'zlar:** dizartriya, nutq kamchiligi, logopediya, artikulyatsiya, nutq terapiyasi, korreksion ishlar, bolalar nutqi.

Dizartriya — bu nutq ishlab chiqarish mexanizmining (artikulyatsiya, nafas, fonatsiya) markaziy yoki periferik nerv tizimi bilan bogʻliq buzilishi sababli paydo boʻladigan nutqning ravonligi, aniqligi va musiqaviyligi (prosodiya)ning pasayish. Bolalarda nutq kamchiliklari-bu bolaning nutqni tushunishi yoki ifoda qilishdagi qiyinchiliklari bolib, oʻqishiga va muloqot qilishiga taʼsir koʻrsatadi. Xozirgi kunda korreksion pedagogika fani rivojlanib ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Bu fanlar qatoriga logopediya fani xam kiradi. Logopediya “logos-soʻz, pedeo-oʻrgatish degan maʼnoni anglatib”, nutq kamchiliklari ularning sabablari oʻrganish va oldini olib bartaraf etish bilan shugʻullanadi. Nutq kamchiliklari bolalarda muloqot qobiliyatining pasayishiga, ijtimoiy moslashuvning qiyinlashuviga va oʻquv jarayonlarida qiyinchiliklarga olib keladi.

Nutq buzilishlarining orasida dizartriya — nutq mushaklari boshqaruvi yomonlashuvi natijasida yuzaga keladigan motor nutq buzilishi boʻlib, uning tashxislanishi, sabablari va korreksion yondashuvlari bugungi kunda logopediya va defektologiya sohasida dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Nutq kamchiliklarining asosiy sabablari irsiyat, xomiladorlik va tugʻruq vaqtidagi asoratlar, stress, qoʻrquv, oilaviy muhit, notogʻri tarbiya eshitish va korishdagi muammolar sababli yuzaga keladi. Nutq kamchiliklarining bir necha xil turlari mavjud boʻlib, bulardan dizartriya boʻlib u nutq apparati mushaklarinining yetarli ishlamasligi deb yuritiladi yaʼni bolalarda markaziy yoki pereferik asab tizimining zararlanishi deb yuritiladi. Bunda til, lab, yumshoq tanglayda mushaklarning harakatlanishi buzilishi bilan kechadigan ogʻir nutq kamchiligini tushunamiz. Dizartriyaning asosiy belgilari tovushlarni n oaniq talaffuz qilish, nutqning sekin yoki notekkis boʻlishi, ovoz xirillashi yoki burundan chiqishi, ovozining past chiqishi. Dizartriyaning sabablari prenatal va postnatal deb yuritiladi. Perenatalga homiladorlik davridagi va tugruq vaqtidagi markaziy asab tizimini zararlanishini misol qilishimiz mumkin.

Postnatalga infeksiyon kasalliklar meningit va ensafalit, miyya jarohatlari, bolalar cerebral falaji misol boʻladi. Dizartriyaning aniqlashda nevrolog psixolog koʻruvi, logopedik tekshiruvdan oʻtkazish zarur. Dizartriya logopedik mashguʻlotlar yaʼni artikulyatsion gimnastika, nafas mashqlari, ovozni togʻri qoʻyish mashqlari ritm va tempni toʻgʻirlash ayni muddao. Qoʻshimcha yordam qilib fizioterapiya, massage va sensor mashqlarni qoʻshish mumkin. Bundan tashqari ota-ona bilan uzluksiz hamkorlikni yoʻlga qoʻyishni taʼminlash.

Dizartriyaning psixologik xususiyatlariga diqqat va xotiraning sustligi oʻziga boʻlgan ishonchning kamligi va muloqotdan qochish kiradi.

Dizartriyaning bir necha xil turlari mavjud bular:

- Spastik dizartriya yaʼni mushaklar tarang harakat cheklanadi.
- Gipotonik mushaklar boʻshashadi yaʼni sust boʻladi.
- Giperkenetik ixtiyorsiz harakatlar koʻpayishi.
- Aralash tur bunda bir nechta belgilar birgalikda keladi.
- Ataksik dizartriya bunda nutq notekkis ritm buzilishi boʻladi.

Dizartrik bolani Oʻqish va yozishga oʻrgatish.

- Harflarni koʻrish—eshitish—harakat orqali oʻrgatish
- Boʻgʻinlab oʻqitish
- Qisqa va sodda matnlar bilan ishlash
- Qoʻl mayda motorikasini rivojlantirish
- Katakli daftar, yirik shrift
- Diktantni qisqa va sekin tempda oʻtkazish.

Dizartrik bolaga dars otish usullari.

- Qisqa, aniq va tushunarli ko'rsatmalar berish
- Sekin nutq tempi va aniq talaffuz
- Og'zaki topshiriqlarni vizual tayanch bilan birga berish
- Javob berish uchun bolaga yetarli vaqt ajratish.

Dars davomida bolani majburan baland gapirtirmaslik, nutqdagi xato kamchiliklarni keskin tog'irlamasli va bolaning xar bir yutug'ini qo'llab -quvvatlash lozim. Dizartriya bartaraf etish uzoq muddatli kompleks korreksion jarayon hisoblanadi. Bunda logoped, nevrolog, psixolog va ota-onalar birgalikda ishlashi talab etiladi. Dizartrik bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish tortinchoqlik va qo'rquvni kamaytirish lozim. So'z boyligini kengaytirish dialog va ko'proq muloqot maqsadga muvofiq bo'ladi. Artikulyatsion mashqlar til,lab va yumshoq tanglay harakatini faollashtirish zarur. Dizartriya to'liq bartaraf etish xar doim xam mumkin bo'lavermaydi, lekin tizimli va to'g'ri tashkil etilgan korreksiya natijasida nutqni ravon va tushunarli holatga olib kelish mumkin.

### **Xulosa**

Dizartriya — bolalarda nutqning motor komponenti bilan bog'liq murakkab buzilish bo'lib, erta tashxis va individual terapiya yondashuvini talab etadi. Logopedik mashg'ulotlar, ota-ona va mutaxassislar hamkorligi, shuningdek o'yinlar orqali nutqni rivojlantirish strategiyalari dizartriya bartaraf etishda samarali bo'ladi. Ilmiy izlanishlar nutq buzilishining etiologiyasi, diagnostikasi va terapiyasi bo'yicha yangi yondashuvlarni taklif qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Toshkent 2017 L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova Bolalarda dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etish texnologiyasi.
2. Toshkent "Nisopoligraf 2017" V.S Raxmanova Defektologiya asoslari.
3. Toshkent 2017 R.Shomaxmudova. Bolalar bilan korreksion-logopedik ishlarnibolib borishda didaktik va hatakatli o'yinlar.
4. Voxobava, M., & Gulmira, G. (2025). Nutqida muammolari bo'lgan bolalarga bo'lgan munosabat va ularning ijtimoiy adaptatsiyasi. *Science and Education*, 6(2), 216-219.
5. Turg'unpo'latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta'limda logopedik yordamning o'rni. *Science and Education*, 6(5), 350-355.
6. Munira, V. (2025, March). ALALIA IMPROVISATIONAL METHODS OF PREPARATION FOR WORK ON SPEECH IMPAIRMENT. In *International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (pp. 93-97).
7. Karimjonov, S., Odiljonov, O., & Dilshodov, A. (2025). MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISHDA KENG TARQALGAN XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(12), 290–293. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/3845>
8. Jaxongirova, M. N. Q., & Voxobova, M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish. *Science and Education*, 6(5), 283-287.
9. Sadirdinova, V. M. (2023). Corrective pedagogical work carried out in stuttering children. *JournalNX*, 9(12), 372-375.
10. SADIRDINOVNA, V. M. (2023). Ways and methods of speech formation of children with alaliya speech defects. *Confrencea*, 3(03), 231-235.
11. Munira, V., & Marhabo, Q. (2024). Ovoz kamchiliklarining uchrashi va ularni bartaraf etishning pedagogik asoslari. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15, 29-32.

12. Sadirdinovna, V. M. (2023). Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia. *Open Access Repository*, 4, 316-320.
13. Sadirdinovna, V. M. (2023). Features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(12), 1001-1004.
14. Munira, V., & Sodiqjonovna, M. X. (2024). Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 33-35.
15. Vaxobova, M. (2024). O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, 4, 53-57.
16. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 51-69.